

FITRAT IJODIY MEROSINING O'RGANILISHI

Djumayeva Moxira Turaqulovna

Annotasiya. Maqolada Fitrat ijodiy merosining o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyati o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: o'zbek adabiyoti, tarix va talqin, shoir, lirika, davr nafasi, ijod, ruhiyat, janr, g'azal.

Annotation. The article is devoted to the disclosure of the place and significance of Fitrat's creative heritage in the Uzbek literature.

Key words: Uzbek literature, history and interpretation, poet, lyric, spirit of the time, creativity, psychology, genre, ghazal.

O'zbek adabiyotshunosligida ijodkor badiiy tafakkurining poetik obrazlarda namoyon bo'lish usullari, an'ana va yangilanish jarayonining o'ziga xosligi masalalari dolzarb muammolardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Shunday ijodkorlar borki, ular badiiy ijoddagi dastlabki qadamlaridan oq adabiyotga yangicha ruh olib kiradi. Poetik shaklda hamda poetik obrazda ular amalga oshirgan yangilanish individual ijodiy kashfiyotlar darajasidan o'sib, o'zi mansub bo'lgan millat adabiyotida yangi yuksalish bosqichini boshlab beradi. XX asr o'zbek va fors adabiyotining yetuk bilimdoni, atoqli adib Abdurauf Fitrat ana shunday iste'dod sohiblaridan biri hisoblanadi.

Fitrat ijodiy merosini o'zbek adabiyotshunosligi kontekstida o'rganish fitratshunoslikning jahondagi nazariy tendensiylar bilan mushtarak tushunish uchun muhimdir. Chunki bu davrga kelib, o'zbek adabiyotshunosligi jahon standartlariga yaqinlashdi, Fitrat va unga zamondosh milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti vakillari ijodini qayta baholash tamoyillarini namoyon eta boshladi. Adabiyotshunos Begali Qosimov to'g'ri qayd etgaganidek: "Turkiston jadidchiligining markazi va haqli vorisi, shubhasiz, O'zbekistondir; uni o'rganib baholashdan qay darajada istifoda etishgacha bo'lgan burch va mas'uliyat, birinchi navbatda, bizning zimmamizdadir" [1.169]. Professor Q.Yo'ldoshev o'z kuzatuvlari asosida: "Asr boshidan buyon "ko'rsatib berish", "fosh etish", "aniqlab olish" bilan shug'ullanib kelgan milliy adabiyotshunoslik asr adog'iga yetganda tadqiq va talqingga mayl ko'rsatmoqda... XX asr o'zbek adabiyoti tarixini yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilib, bu davrda yaratilgan asrlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda", degan fikrni ilgari suradi [3.49]. Adabiyotshunos U.Hamdamovning: "Asr boshida jadidlar adabiyotining ideali, avvalo, yurt ozdligi va millatning tiklanishi bilan bog'liq qator masalalar bo'lgan esa, sho'ro davrida adabiyot ideali ko'p jihatdan hukmron mafkuraning soyasida qolib ketdi", [4.6] degan xulosasi esa yanada aniqroq, yanada qat'iyroq mohiyatni ifodalaydi. Adabiyotshunos B.Karimov ayni masala talqiniga yanada kengroq yondashadi: "Avvaliga Cho'lpon va Fitrat adabiy merosidagi, ular dunyoqarashidagi sho'rolar siyosatiga mos jihatlarga ataylab urg'u berilgan bo'lsa, istiqloldan keyin bu adabiy siymolarning xalqning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish

uchun yozgan asarlariga e'tibor kuchaydi. Eng muhimi, har bir olim muayyan ilmiy muammoni o'zining adabiy-estetik didi hamda o'ziga xos yondashuvi asosida tutuntirdi. Masalan Fitratning ma'naviy-e'tiqodiy qarashlarida islomiy, turkchilik va dahriyona tushunchalari, "Shaytonning Tangriga isyonii" she'riy dramasi bahs-munozara mavzusi ham bo'ldi, turlicha talqinlar yozildi" [6.135]. Abdurauf Fitrat ijodini baholashda uning shaxsiyatidagi islomchilik, turkchilik, dahriyona qarashlarning e'tiborga olinishini qayta baholashdagi muayyan mezonlar sifatida ko'rsatadi. Albatta, bu jihatlar istiqlol davri fitratshunosligida yaqqol ko'rindi. Sosiologik yondashuvdan chekinilib, milliy-ma'naviy, adabiy estetik talqinning kuchayganini aniq namoyon etadi.

Fitrat ijodidagi poetik tafakkurning yangilanish tamoyillarini milliy istiqlol konsepsiysi nuqtai nazaridan o'rganilishi haqida gap ketganda, avvalo, mustaqillik davri jadidshunosligi yo'nalishining etakchisi professor B.Qosimov talqin va tadqiqotlariga diqqat qaratish lozim bo'ladi. Olim o'zining "Izlay-izlay topganim..." nomli monografiyasida, "Abdurauf Fitrat xalq farzandi", "Fitrat (chizgilar)", "Fitrat", "O'zi yonib yo'l yoritganlar", "Sening uchun tirildim, Ona.." deb nomlanuvchi qator ilmiy maqolalarida, "Maslakdoshlar: Behbudiy. Ajziy. Fitrat" nomli risolasida, shuningdek, jadid adabiyotiga oid bir qator tadqiqotlarida Fitrat she'riyati haqida salmoqli fikrlarni ilgari surgan [7.15-16].

"Hurriyat" gazetasining 1917 – 18 yilgi sonlarida bosilib chiqqan "Yurt qayg'usi" – mansurasi, "Mirrix yulduziga" asarini B.Qosimov satrma-satr tahlil qiladi:

– "Madaniyat degan G'arbli olbosti. Boqing, buning ko'krigidan o'q bosdi..." degan jumlalarini shunday tahlil qiladi: "...Go'yo shiddatli bir dovul kelganu bundagi go'zallikni barbos qilgan. Bu dovuuning ismi – "madaniyat". Nega "Madaniyat"? Madaniyat hayotning mazmunli bo'lishiga qaratilgan emasmi? Gap nomda emas, mohiyatda. Inqilob xalq uchun, xalqning nomi bilan amalga oshgan edi. Oqibat-chi? Insondagi insoniylik barbos bo'lib, yovvoyilik, yovuzlik junbushga keldi. Bir-birini yo'q qilishga tushdi. Hayvondan xor bo'ldi. Bu inson emas, iblis (olbosti) a'molidir. O'lkaning ko'ksiga o'q qadagan o'shadir" [9.370].

Adabiyotshunos B.Qosimovning Fitrat she'riyati haqidagi mazkur xulosalari ham sof milliy, sosiologik pafosdagi tahlil namunasidir: "Shoirning "Kim deyay seni?", "Bir oz kul", "Achchig'lanma degan eding", "Ishqimning tarixi", "Go'zalim, bevafo gulistonim" kabi ishqiy she'rlarida mahzunlik, zamon boshiga solgan so'ngsiz o'kinch, iztirob to'la alam ko'zga uriladi. Shoirning she'rlari millat boshiga tushgan balo-oqibatlarning muallif qalbida uyg'ongan nidolari edi" [9.371]. Olim shu o'rinda Vadud Mahmudning jadid shoirlarining ishqqi "Vatan va millat ishqidir" degan konsepsiyasini Fitrat she'riyati misolida yana bir bor isbotlaydi. Uning bir qarashda real dunyo go'zali – yorga qaratilgandek tuyuladigan ishqiy she'rlari mohiyatida millat qayg'usi turishini isbot etyapti. Haqiqatdan ham XX asr o'n yettinchi yillarda Fitrat o'z yori – Vatanidan ajralish arafasida edi. U raqiblaridan kelayotgan bunday xavfni teran his qilar edi. Hijron kunlari, Yorning raqib (mustamlakachilar) quliga o'tish onlari yaqin edi. Professor B.Qosimov Fitrat she'rlaridagi mana shunday nozik ijtimoiy pafosni daqiqona ilg'aydi. Tahlillar davomida talqinchidagi milliy mafkura, vatansevarlik pafosi aniq bilinadi. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshida Fitratning "Sharq", "Shoir", "Kim deyay seni?", "Nega bo'yla?", "Go'zalim, bevafo

gulistonim”, “Mirrix yulduziga”, “Behbudiyning sag‘anasini izladim”, “Paxta terimidan”, “Bir oz kul”, “Achchig‘lanma degan eding”, “Ishqimning tarixi (...ga)”, “Yana yondim”, “Parcha”, “O‘qituvchilar yurtiga”, “Qor”, “Nozanin yor” kabi qator o‘zbek va fors-tojik tilidagi she’rlari matbuot sahifalarida e’lon etildi. Fitratning bunday lirik asarlari B.Qosimovning “Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat” risolasida, H.Boltaboyevning “Fitrat” nomli konseptual maqolasida dastlabki talqinlarini topdi.

Xulosa qilib ayganda, Fitrat ijodiy merosiga turli-tuman talqinlarda ijtimoiy yondashuv ustuvorligi ko‘zga tashlanadi. Binobarin, adib asarlarining ijtimoiy ruhi adabiyotshunoslikni ayni shunday yondashuvga olib kelgan edi. Zero, yuqorida nomlari zikr etilgan fitratshunoslarning tadqiqotlarida Fitrat ijodi ijtimoiy voqealar bilan mushtarak holda, sosiologik tadqiq qilingani ushbu xulosamizni asoslaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.
2. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006.
3. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
4. Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.
5. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.
6. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Тошкент: Академнашр, 2014.
7. Қосимов Б. Абдурауф Фитрат халқ фарзанди //Саодат, 1989. - №7.
8. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.
9. Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Фил.фан.док...дисс. – Т.,1996.
10. Болтабоев Ҳ. Ўзбек адабиётшунослари. // Биобиблиографик кўрсаткич. – Тошкент: 2014.